



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISINING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

*Samarqand davlat pedagogika
instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim
nazariyasi kafedrasida assistenti*

Saydulloyeva Shoxsanam

shoxsanamsaydulloyeva94@gmail.com

*Samarqand davlat pedagogika
instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi*

Abdisalamova Ruxshona Asqar qizi

abdisalomovaruxshona@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Barchamizga ma’lumki, har bir o‘quvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o‘z imkoniyati, bilimi tajribalarini ishga solishga o‘rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo‘lish vazifalarini bajaradi. Ushbu maqolada yuqoridagi fikrlar haqida so‘z borib, bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot-kommunikativ ta’lim muhitida axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish va axborot-kommunikativ ta’lim muhitining tarkibiy qismlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, kommunikativ ko‘nikma, zamonaviy ta’lim, muloqot, kommunikativ va pedagogik qobiliyatlar, nutq, fikr, muhit, Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son hamda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” amalga oshishiga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish kabi dolzarb masalalar qo‘yilgan.

“Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o‘quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o‘quv faniga qiziqtirishni kuchaytirish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.”

Bugungi kunda ta’lim sohasida faqatgina o‘qimishli, diplomga ega inson emas, balki pedagogik kommunikativ qobiliyatli voqelikni oldindan ko‘ra oladigan, to‘g‘ri qaror qabul qilish mahoratiga ega, o‘z-o‘zini rivojlantirish va uz ustida tinimsiz ishlaydigan, oqil va barkamol insonni tarbiyalash muammosi qo‘yilmoqda. Bu borada hurmatli yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning "Hayotimizning eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislarlar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o‘rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur”, degan fikrlarni aytib o‘tish joizdir.

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan kommunikativ qobiliyat egasi bo‘lgan, ijtimoiy faol bo‘lgan pedagoglarni talab qilmoqda. Ana shunday qator muammolarni hal etishning eng muhim omillardan biri bo‘lg‘usi



o'qituvchilarning kasbiy xususiyatlarini va kasbiy tayyorgarlik jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. Shunga binoan mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazish hisoblanadi.

Bu borada, Rossiya psixologlaridan N.V.Kuzmina, Va.Slasenin, F.N.Gonobolin, O'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur hislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborova, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan.

O'qituvchilik kasbi axloqiy xarakterga ega bo'lgan insonparvar kasblardan biri bo'lib, o'quvchilarga insoniy munosabatda bo'lish o'qituvchi faoliyatining asosiy tamoyili hisoblanadi. Bu o'qituvchidan bolalarni sevish, ularni qadrd-qimmatini hurmat qilish, sho'xliklariga bardoshli bo'lish, ularni jismoniy va axloqiy jihatlarini tarbiyalash talab etiladi. O'qituvchining odob-axloqi, insonparvarligi bolalarning kelajagi uchun va ularni hayotda ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlashga intilishida namoyon bo'ladi. Xushyorlik, pedagogik muomala, diqqat-e'tiborli bo'lish, bolalarni sevish, ularga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchini anglash, mas'uliyatli, talabchan va adolatli bo'lish, bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik kabilar o'qituvchiga xos bo'lgan kasbiy axloqiy fazilatlar hisoblanadi.

Pedagogik qobiliyat asosiy qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar natijasida pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'p qirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib berdi. Ana shu



tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishda muhim o'rin egallaydigan qator kompetentlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Kommunikativ qobiliyat bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir. Kommunikativ qobiliyatlar, so'z, fikr, tuyg'u orqali munosabat, o'zaro fikr almashish, fahm-idrokli bo'lish, turli qobiliyat ko'rinishlari, qirralari iqtidorliligiga ega bo'lish, dinamizm (harakatchan), faol, olg'a siljish; emotsional (his-tuyg'u va jo'shqin), qat'iyatlik, qunt, sabot-chidamli; kelajakka ishonch (kelajakni ko'ra bilish), e'tiborli, nufuzli bo'lish (o'z ta'sirchanligi bilan mahliyo, maftun eta bilish), pedagogik texnika o'z-o'zini boshqara olish, boshqalar bilan aloqa-munosabat o'rnatish kabi malakalarga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashni qanoatlaydi.

Maxsus pedagogik qobiliyatlar ichida shundaylari ham borki, ularni aniq o'qituvchilik yoki tarbiyachilik faoliyatlariga mansub deb ajratib bo'lmaydi. Negaki, ular har ikkalasi uchun ham bir xil zarurdir. Bu narsa pedagogik muloqot, muomalasidir. Psixolog olim V.A.Kan-Kalik bunday qobiliyatni tadqiq qilib shunday yozgan edi. "Pedagoglik ishi o'z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsad o'qituvchi shaxsiga ta'siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim mahoratlaridan yana biri o'quvchilar bilan uzoq va samarali ta'sir o'tkazishni tashkil etishidir." Odatda bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobiliyati bilan bog'laydilar. Kasbiy pedagogik muloqotiga ega bo'lish shaxslararo muloqotga tegishli bo'lgan pedagog shaxsining muhim tomonidir.

Aytib o'tish joizki, pedagogik muloqot chog'ida namoyon bo'ladigan kommunikativ qobiliyat – bu bolalar ta'lim va tarbiyasi bilan bog'liq pedagogik ta'sir doirasida o'ziga xos ravishda namoyon bo'luvchi muomala qobiliyat.



Shulardan kelib chiqqan holda, shunday xulosa qilish mumkin. Birinchidan, insonning barcha kommunikativ qobiliyatlari ham birdek namoyon bo‘lavermaydi va pedagog uchun birdek zarur bo‘lmaydi. Ikkinchidan, pedagog egallashi lozim bo‘lgan bir qator kommunikativ malakali va ko‘nikmalar borki, ular boshqa kasbdagi kishilar uchun muhim ahamiyatga ega emas. Jumladan, insonning boshqa kishilarni tushuna olishi, o‘z-o‘zini anglashi, muloqot jarayonida to‘g‘ri qabul qilishi, boshqa odamlar bilan to‘g‘ri munosabatga kirisha olishi, o‘z-o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishidir. Har bir ajratilgan kommunikativ qobiliyatlar guruhini batafsil ko‘rib chiqib, shu bilan birga pedagogik muloqot davrida bu qobiliyatlarning yaxshi rivojlanmaganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni ko‘rsatib o‘tamiz. Demak, bugun oliy ta’limda tahsil olayotgan har bir talaba eng avvalo o‘quv-tarbiya jarayonida o‘zining kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor berishligi, ko‘proq kitoblar mutolaa qilish, o‘rtoqlari bilan do‘stona muloqotda bo‘lishi, o‘zaro fikr almashishlari, mavzuga doir muammolarni tahlil qilishlari lozim bo‘ladi. Odam o‘z-o‘zini bilishi o‘z bilimlarini, o‘z qobiliyatlarini o‘z xarakteri va boshqa shaxsning o‘zidagi xususiyatlarini baholashi, sirdan qaraganda odam qanday qabul qiladi, va u boshqa odamlar ko‘zida qanday namoyon bo‘lishini bila olish kabilar kiradi.

Pedagogik muloqotning maxsus jihatlarini namoyon bo‘lishi, pedagog tomonidan rag‘batlantirish yoki jazolash xizmatga yarasha odilona bo‘lsa, ular o‘quvchilarning yutuqlarini qo‘llab quvvatlaydilar.

Ushbu mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog‘liqdir. Ularda ana shunday sifat va fazilatlar to‘la shakllangan bo‘lsa, bilimlarni egallash yoki kasbiy kamoloti uchun hech narsa to‘siq bo‘la olmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda ijtimoiy psixologik trening yaxshi natija beradi.



Pedagogik qobiliyat yoki kommunikativ ko‘nikmalar nuqtai nazaridan har bir bo‘lg‘usi o‘qituvchi o‘z bilim malaka va ko‘nikmalarni mohiyatini targ‘ib etuvchi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazayotganda quyidagilarga e’tibor berishi kerak bo‘ladi:

1. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ aloqaga e’tibor qaratish;
2. O‘qituvchi har bir jumlani to‘g‘ri tushuna olishi;
3. Kasbiy pedagogik muloqotda bo‘lish shaxslararo muloqotga kirisha olish;
4. Diqqat bilan tinglash texnikasiga rioya qilish;
5. Ovoz va tovush imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalana olish;
6. O‘z-o‘zini anglashi, muloqot jarayonida to‘g‘ri baholashi, to‘g‘ri qabul qilishi;
7. O‘quvchilar bilan to‘g‘ri munosabatga kirisha olishi;
8. O‘z-o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishi;
9. O‘quvchilar bilan ijtimoiy - psixologik treninglar o‘tkazishi;
10. Belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni tanlash so‘z o‘yini va tadbirlar o‘tkazish;
11. Muloqot jarayoni monitoringini yaratish kabilar kiradi.

Ushbu keltirilgan masalalardan har birining salmog‘ini aniqlash, ularni yaxlit bir tizim – majmuaga birlashtirish bo‘lg‘usi pedagog kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, lingvistik, interaktiv va pragmatik kompetentlar o‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda eng muhimlaridan hisoblanadi. Ammo ijtimoiy-madaniy, emotsional va reflektiv komponentlar ham muhim rol o‘ynaydi. Kompleks yondashuv orqali o‘qituvchilarning barcha komponentlar bo‘yicha kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi oshiradi. Har bir o‘qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini



vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni o'rgatadi. Pedagogik kommunikativ qobiliyatga amal qilishda o'qituvchi kasbiy jihatdan o'zligini anglagan holda o'quvchi shaxsini ko'ra olishi va uning fikr o'ylari, tashvish - quvonchlariga ega bo'la olish sinf xonaning qiziqishlari va manfaatlarini ilmiy - ijtimoiy yondashuvi hozirgi zamon o'qituvchisidan oliy insoniy fazilatlarni talab qiladi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoni boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilishi va o'quv jarayonining natijasi bilan ideal qiyoslanishi lozim.

O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega. Pedagogik faoliyatning bunday xususiyati barcha fan o'qituvchilariga, tarbiyachilar, sinf va maktab rahbarlariga birdek taalluqlidir. Barcha pedagogik xodimlarning har bir so'zi va amaliy xatti - harakatlari o'quvchilarga, umuminsoniy va milliy axloqni singdirish maqsadida xizmat qilishi lozim. Bu ish, o'z navbatida, muallim va o'quvchilardan axloqiy nazariyasi, axloqiy tasavvur va tushunchalar, o'qituvchi odobiga doir bilimlarning muntazam ravishda oshirib borishni, muhokama, mulohaza qilib, uning mohiyatini tushinish, mag'zini chaqishni talab etadi. Murakkab axloqiy hodisalarning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish mas'uliyatli ish bo'lib, buning uchun muallim o'quvchilarning yoshi, saviyasiga mos, ular tushunadigan axloqiy faktlar, misollarni izlab topishi, tanlab olishi kerak.

Pedagogik faoliyat o'qituvchidan yaxshi xulq egasi bo'lishini, axloqiy tajribaga ega bo'lishini, o'z-o'zini muntazam ravishda axloqiy jihatdan tarbiyalab borishni talab etadi. Shu bilan birga, muallim o'quvchilarga muntazam ravishda axloqdan saboq berib, ularning axloqiy bilimli qilishi, bolalarga yaxshi xulqiy odatlarni amalda bajartirib, mashq qildirib, axloqiy tajriba orttirishlariga ko'maklashishi, o'quvchilarni ham o'z-o'zini tarbiyalab borishlariga xizmat qiladi.



O'qituvchining kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni bu nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy yetuklik darajasini oshirishni ham o'z ichiga oladi. Chunki o'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki yosh avlodni tarbiyalovchi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib voyaga yetkazuvchi shaxsdir. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllanishida alohida o'rin tutadi.

O'qituvchi o'z faoliyatida xalqimizning tarbiyaviy tajribalariga tayangan holda, o'quvchilarga nafaqat bilim, balki ma'naviy qadriyatlarni ham singdiradi. Shunda o'qituvchi o'z xatti-harakati, muomalasi, odobi bilan o'quvchilarga ibrat bo'ladi.

Bundan tashqari, o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalarida an'anaviy tarbiya muhim rol o'ynaydi. Xalqimizda "so'z odobi", "muomala madaniyati" kabi qadriyatlar mavjud. O'qituvchi bu qadriyatlarni o'z muloqotida, nutqida, o'quvchi va ota-onalar bilan bo'lgan aloqalarida namoyon etganda, u haqiqiy pedagogik madaniyat sohibiga aylanadi.

An'anaviy tarbiya o'qituvchini o'z kasbiga mehr bilan yondashishni, insonlarga hurmat bilan qarashni, bolalarni mehr bilan tarbiyalashni o'rgatadi. Shuningdek, tarbiya o'qituvchining ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi, uni har qanday yod g'oyalar, loqaydlik va befarlikdan himoya qiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanishi o'qituvchidan nafaqat bilim va ko'nikmaga, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishini ham talab etadi. Chunki o'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki yosh avlodni tarbiyalovchi, ularning dunyoqarashini, ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantiruvchi shaxsdir.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kommunikativ ko'nikmasini shakllantirish pedagogik ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchi shaxsining shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi va bu jarayonda o'qituvchining nutqi, muomala madaniyati hamda psixologik yondashuvi asosiy vosita bo'lib



xizmat qiladi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo'lboshchi va motivator sifatida ham samarali muloqot olib borishi lozim. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kommunikativ ko'nikmasi uning kasbiy mahorati, pedagogik madaniyati va ta'lim samaradorligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida "PF-5847-son 08.10.2019 y.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettiririb yangi bosqichga ko'taramiz. T. O'zbekiston NMIU, 2017 y. 16.b.
3. G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari. -T. 1997y. 79.b.
4. Kornaeva Z.V. O'rta maktabda ta'limning boshlang'ich bosqichi uchun kommunikativ minimumni tanlash to'g'risida // IYaSH. - 1989.-No 1. -b.36-41.
5. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi - Toshkent: Turon Iqbol, 2016y.